

KARATE SPORT TURI BÒYICHA ÒQUVCHI YOSHLAR ÒRTASIDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Ro'zmatboyev Anvarbek Rasulbek

O'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruvi va
texnologiyalar universiteti 1-bosqich
magistranti

Annatatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 noyabrdagi "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-356-son qaroriga asosan karate Quyidagilar 2023-2026 yillarda karate sport turining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi: iqtidorli yoshlarni, shu jumladan qizlarni aniqlash, tanlash va saralash; aholining barcha qatlamlari, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning karate bilan shug'ullanishi uchun hududlarda «Karate hamma uchun» dasturini amalga oshirish; karate bo'yicha zamonaviy sport ob'yektlarini barpo etish, mavjudlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash; karate bo'yicha professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirish va boshqalar..

Kalit so'zlar: karate, mahalliy sport tadbirlari, yoshlar, rivojlantirish, IMRAD, sport mashg'ulotlari, sog'lom turmush tarzi..

Abstract: In accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-356 dated November 3, 2023 "On measures for the further development of the sport of Karate (WKF)", the following were determined as the main directions of the sport of karate in 2023-2026: identification, selection and selection of talented young people, including girls; implementation of the "Karate for All" program in the regions for all segments of the population, including people with physical disabilities and disabilities, to engage in karate; construction of modern karate sports

facilities, strengthening the material and technical base of existing ones, providing them with modern sports equipment and equipment; digitization of all stages of training as professional karate athletes, etc. **Keywords:** volleyball, physical qualities, strength and speed, flexibility, coordinated movements, signals, games, methods.

Keywords: karate, local sports events, youth, development, IMRAD, sports training, healthy lifestyle.

Karate sport turi jahonda eng mashhur jangovar sport turlaridan biri bo'lib, uning tarixi va falsafasi yosh avlodga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va sportga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Karate sporti o'zining ko'p asrlik tarixi, falsafasi va tarbiyaviy ahamiyati bilan dunyo miqyosida mashhur bo'lib, yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham karate sporti tobora ommalashib bormoqda, biroq bu sport turini yanada rivojlantirish, ayniqsa o'quvchi yoshlar o'rtasida keng tarqatish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi. Mahalliy sport tadbirlari yoshlarni sportga jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy miqyosdagi musobaqalar, master-klasslar, ko'rgazmali chiqishlar va boshqa sport tadbirlari orqali yoshlar karate sportining mohiyati va afzalliklarini yaqindan anglash, unda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi o'quvchi yoshlar o'rtasida karate sport turini rivojlantirishda mahalliy sport tadbirlarining o'рни va ahamiyatini oshirish, takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mahalliy sport tadbirlari jamoaviy ruhni tarbiyalash, ijtimoiylashuv va madaniy almashinuv uchun imkoniyat yaratadi. Karate bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda turli maktab, tuman yoki viloyatlardan kelgan o'quvchilar o'zaro muloqot qiladilar, tajriba almashadi va yangi do'stlar orttirishadi. Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muhtaram yurt boshimiz qarorlariga muvofiq joriy yil 3-noyabrda imzolagan qarori bilan 2023-2026 yillarda karate (WKF) sport turini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Qaror bilan O'zbekiston karate milliy federatsiyasi O'zbekiston karate (WKF) assotsiatsiyasi etib qayta tashkil qilinib, joylarda uning hududiy bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida parakarateni rivojlantirish uchun O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi tuzilmasida parakarate bo'limi tashkil etiladi.

2023-2026 yillarda O'zbekistonda karate (WKF) bilan doimiy shug'ullanuvchilar sonini 55 ming nafarga yetkazish (jumladan, joriy yilda 40 ming nafar) nazarda tutilgan.

Karate sport tadbirlarini samarali tashkil etish va o'tkazish uchun bir qator tavsiyalarni taklif etish mumkin:

1. Mahalliy hokimiyatlar, ta'lim muassasalari va sport federatsiyalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, bu orqali tadbirlarning miqyosi va sifatini oshirish;
2. Maktablarda karate to'garaklarini tashkil etish va ularda muntazam ravishda ichki musobaqalar o'tkazish;
3. Professional murabbiylar va taniqli sportchilarni jalb qilgan holda master-klasslar tashkil etish;
4. Karate sport tadbirlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;
5. Tadbirlarni o'tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularning tashkiliy darajasini oshirish.

O'zbekistonda sport tadbirlari jamoatchilikning e'tiborini karate sportiga jalb qilish, uni targ'ib qilish va ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tadbirlar davomida ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa jamoatchilik vakillari ham ishtirok etishi mumkin, bu esa sportning yanada kengroq doirada targ'ib qilinishiga xizmat qiladi.

Buning natijasi bo'laroq karate sport turidan 2024-2025 yil yutuqlarimiz Kumite bahslarida O'zbekiston terma jamoasi sportchilari quyidagi natijalarni qayd etdi:

- **Artur Kan** (8–9 yosh, -25 kg) — 1-o‘rin
- **Kirill Kvon** (8–9 yosh, -25 kg) — 2-o‘rin
- **Kamronshoh Mahmudov** (8–9 yosh, mutlaq vazn) — 2-o‘rin
- **Mariya Chaykina** (10–11 yosh, -30 kg) — 1-o‘rin
- **Amina Mirzaahmedova** (10–11 yosh, -30 kg) — 3-o‘rin
- **Ayub Shokirov** (10–11 yosh, -35 kg) — 3-o‘rin
- **Ugay Evgeniy** (10–11 yosh, mutlaq vazn) — 3-o‘rin
- **Amirbek Arslonov** (12–13 yosh, -45 kg) — 3-o‘rin
- **Nozimabonu Ubaydullayeva** (12–13 yosh, -45 kg) — 1-o‘rin
- **Shohrux Valijonov** (14–15 yosh, mutlaq vazn) — 3-o‘rin
- **Timur Xolmurodov** (14–15 yosh, -60 kg) — 1-o‘rin
- **Timur Talasov** (14–15 yosh, -55 kg) — 3-o‘rin
- **Murod Rahimov** (16–17 yosh, -65 kg) — 2-o‘rin
- **Diyorbek Riskidinov** (16–17 yosh, mutlaq vazn) — 1-o‘rin
- **Samik Karimov** (18–39 yosh, -95 kg) — 2-o‘rin
- **Mirjamol Mirzaahmedov** (18–39 yosh, -95 kg) — 1-o‘rin
- **Ramazon Riskidinov** (18–39 yosh, -85 kg) — 1-o‘rin
- **Xasan Xurramov** (18–39 yosh, -75 kg) — 3-o‘rin

- **Shamsiddin Mirzoqulov** (18–39 yosh, -75 kg) — 3-o‘rin
- **Kseniya Xvostikova** (18–39 yosh, -65 kg) — 3-o‘rin
- **Gavhar Nuriyeva** (18–39 yosh, -60 kg) — 2-o‘rin
- **Rustam Bekmuratov** (40–49 yosh, -75 kg) — 1-o‘rin
- **Nikolay Novikov** (18–39 yosh, mutlaq vazn) — 1-o‘rin
- **Natalya Lim** (+40 yosh, -60 kg) — 1-o‘rin

Jamoaviy kumite bo‘yicha Murod Rahimov, Alisher Haydarov va Saidqosimbek Abdug‘aniyevdan iborat O‘zbekiston terma jamoasi birinchi o‘rinni egalladi.

Kata yo‘nalishida uchinchi o‘rin uchun medallarni Murod Rahimov (16–17 yosh), Saidahmat Seydametov (18+) va Zarina Yusupova (18+) qo‘lga kiritdi.

Bu natijalarga erishishimizga muhtaram yurt boshimiz sayi harakatlari va strategiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 noyabrdagi “Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-356-son qaroriga asosan karate bo‘yicha yoshlar o‘rtasida karate sport turini rivojlantirishda mahalliy sport tadbirlarining o‘rni beqiyos. Ushbu tadbirlar orqali yoshlar karate sportining mohiyati va afzalliklarini anglaydilar, unda bevosita ishtirok etadilar va bosqichma-bosqich o‘z mahoratlarini oshiradilar. Mahalliy sport tadbirlari yoshlarda nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalashga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili asosida mahalliy sport tadbirlarining motivatsion, ta‘limiy, ijtimoiylashuv va professional rivojlanish funksiyalari aniqlandi. Bu funksiyalarning barchasi o‘quvchi yoshlarning karate bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Mahalliy sport tadbirlarini samarali tashkil etish va o‘tkazish uchun davlat organlari, ta‘lim muassasalari, sport federatsiyalari va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va tadbirlarni keng miqyosda targ‘ib qilish tavsiya etiladi. Bu chora-tadbirlar

O'zbekistonda karate sportini yanada rivojlantirishga, o'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga va sport orqali vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Toymurodov, S. (2021). O'zbekistonda karate sportining rivojlanish tarixi va istiqbollari. Sport va jismoniy tarbiya jurnali, 3(1), 45-52.
2. Rasulov, A. (2022). O'zbekistonda karate sportini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Zamonaviy sport: ilmiy-amaliy jurnal, 4(2), 78-85.
3. Kim, Y. (2021). The Role of Local Sports Events in Youth Development: A Cross-Cultural Analysis. International Journal of Sports Sciences, 15(3), 210-225.
3. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2023-y., 07/23/356/0827-son)